

**MAKTABDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA NODAVLAT TA‘LIM
TASHKILOTI (NTT) O‘QUVCHILARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH
MEZONLARI VA DARAJALARI**

Nasriddinov Xasan Baxtiyor o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlarda NTT o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirish jarayonining mezon va ko‘rsatkichlari bo‘yicha tadqiqotlarning izohlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, o‘lchash, baholash, baholash mezoni, maktabdan tashqari mashg‘ulotlar, tanqidiy fikrlash

Аннотация: В данной статье представлены пояснения исследования критериев и показателей процесса развития креативности учащихся НОУ во внеклассной деятельности.

Ключевые слова: креативность, измерение, оценка, критерии оценки, внеклассная деятельность, критическое мышление

Annotation: This article provides an explanation of the study of criteria and indicators in the process of non-governmental educational institutions' extracurricular activities.

Keywords: creativity, measurement, evaluation, evaluation criteria, extracurricular activities, critical thinking.

Sinfdan tashqari ishlarda NTT o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirish jarayoni ma‘lum mezon va ko‘rsatkichlarga muvofiqligiga asoslanadi.

Mezonlar deganda biror narsaga baho beriladigan, aniqlanadigan yoki tasniflanadigan belgi tushuniladi; o‘lchash, baholash hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar mezonni ilmiy va amaliy faoliyatni o‘lchash, baholashdan keyin tanlash amalga oshiriladigan belgilar, qoida sifatida ta‘riflashadi. Mezonlarni tanlashda aniq tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqish kerak. O‘quvchining kreativligini shakllanish jarayonida darsdan tashqari ishlarda rivojlantirishning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi: a) reproduktiv-taqlid (oddiydan murakkabga spiral shaklda); b) qidiruv-ijrochilik (tahlil qilish, bilimlarni integratsiyalash, fikrlash, natijani takomillashtirish); g) kreativ mahsulotda (fikr yoki qulaylikchi mahsulot).

Reproduktiv-taqlid shaklida spiral shakldagi bilish kuzatish, analoglarni qidirishdan, namunaga ko‘ra ko‘nikmalarga ega bo‘lishdan iborat bo‘ladi. Qidiruv-ijrochilik shakli asosida tahlil qilish, differentsiatsiya qilish, bilimlarni integratsiyalash, muayyan qabulni egallash, natija va ularning salohiyatini tushuntirish ko‘zda tutilgan. Kreativning eng yuqori darajasi – kreativ mahsulot, oldingi shakllarning natijasi – mo‘ljallangan vazifani asl, optimal, mustaqil tanlangan usul bilan bajarish hisoblanadi.

Psixologo-pedagogik adabiyotlar tahlili kreativlikni baholashning quyidagi umumiy mezonlarini aniqlash imkonini berdi:

1. Bilimlarni integratsiyalash ko‘nikmasi.
2. Original g‘oyalar ishlab chiqish ko‘nikmasi.
3. Aqliy va ruhiy faoliyat uyg‘unligida qoniqish olish ko‘nikmasi - ijobiy emotsiyadir.
4. Odatdagi narsalarda noodatiylikni, eshitish, qabul qilish ko‘nikmasi.
5. Ma‘lumotni boyitish, uni o‘z fikrida taqdim etish imkoniyati.
6. Masalalarni noodatiy tarzda hal qilish.
7. “Yonib turish”, astoydil mehnat qilish, yakunigacha borish, xatolarni topa olish, barchasini boshidan boshlash uchun o‘zida kuch topa olish, barcha bosqichlarni yana bosib o‘tish va ishlarni yakunlash ko‘nikmasi.
8. Moddiylashtirilgan yoki intellektual mahsulot olish ko‘nikmasi.

Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali kreativlikning shakllantirilishi, o'ta-onalar va o'qituvchilarning fikricha, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda namoyon bo'ladi va pedagogik diagnostika bilan tasdiqlanadi.

Kreativlikni rivojlanishini turli jihatlarini tadqiq etgan holda olimlar turli mezonlarni ajratib ko'rsatadi. Biz uchun to'garakka qatnashayotgan o'quvchilar sonini kamayib ketmasligi muhim edi, chunki natija bizning ishimiz samaradorligini belgilab berar edi.

Darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning kreativligi rivojlanishining mezonlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar tavsifi
Kognitiv	Intellekt	O'quvchilarning bilimi (bilishi), bu erda bilim – bu bilish natijalari, fikrlashidagi ilmiy ma'lumotlar yoki ma'lumotlar majmui. Intellektning rivojlanish darajasi standart, kengaytirilgan va fanlararo bilimlarga egaligiga bog'liq bo'ladi; Standart bilimlar – bilim va ko'nikmalarning tartiblangan va tashkillashtirilgan tizimi, har bir o'quv predmeti o'quv dasturining o'quv yili yakunida egallanilishi kafolatlanadigan minimumi; Kengaytirilgan bilimlar – ilmiy dunyoqarashni, fan, ishlab chiqarish va jamiyatga nisbatan axloqiy va qadriyatli munosabatlarni shakllantiruvchi bilimlar; Fanlalararo bilimlar – fanga turli tarafdin qarash imkonini beradi va u haqda yaxlit tasavurning hosil bo'lishi imkonini beradi
	Aqlning egiluvchanligi	Muammolarga turli nuqtai nazardan qarash
	Tasavvur	Fikran tasvirlash
Shaxsiy-motivatsion	Emotsionallik	Idrok, munosabat, yumor, quvonch, qoniqish, g'urur
	Motivatsiya	Intilishlar, istaklar, moyilliklar, qiziqishlar va ehtiyojlar
	intuitsiya	Reaksiya yoki yechim topishning tezligi
	qiziquvchanlik	Qiziqishning barqarorligi, mobillashgan ko'nikmalar, intilish
	Shaxsiy sifatlar	Do'stona munosabatlar, hamjihatlik, murosali yechimlarni birgalikda izlash, tashabbuskorlik, to'g'ri muloqot, rivojlangan tasavvur; shaxsiy ijodiy potensialni rivojlantirish zarurligiga ishonch, hamkorlikda kreativ faoliyat imkoniyati va birgalikdagi faoliyatda muvaffaqiyatga erishish; ijodiy jarayonda ishtirok etish istagi; o'zining ijodiy individualligini namoyish etish istagi va ehtiyoji, refleksiyaning maqsadga muvofiqligi; kreativ faoliyatga munosabat (ijodkorlikka motivatsiyaning yuqoriligi, ongli va ifodalangan qiziqish, faol va mustaqil

		pozitsiya, sog'lom raqobat, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik); o'z-o'zini, boshqalarni idrok etishi, tushunishi, baholashi, asosiy narsalarni ajrata olishi, o'zgarishlarga sezgirligi, ma'lumotni adekvat talqin qilish va samarali muloqot qilish uchun qayta qura olish; mobillik ko'nikmalari – muammolarga e'tiboriligi.
Faoliyatli-ijodiy	Ijodiy fikrlash	Ixtirochiligi, fan va texnikaning yangiliklariga ochiqqligi
	G'oyalarning xilma-xilligi	G'oyalarni generalizatsiyalash qobiliyati
	orginallik	O'zga xoslik
	mustaqillik	Individual ijodkorlik; o'z-o'zini nazorat qilishi, boshlagan ishini kreativ faoliyatining yakuniy virtual yoki real mahsulotiga yetkazishda o'zini-o'zi tashkil etish
	Axborot, rivojlantiruvchi va yo'naltiruvchi ko'nikmalardan foydalanishda mehnatga ijodiy munosabat	Axborot ko'nikmalari: a) o'quv ma'lumotlarini aniq, lo'nda, tasviriy, ko'rgazmali (sxema, diagramma, grafik, chizma) ko'rsatish; o'quv material va ma'lumotlarni taqdim etishning deduktiv (umumiydan xususiyga) va induktiv (xususiydan umumiyga) usullarining uyg'unlashuvi; b) bosma va elektron manbalardan, davriy nashrlardan, radio va televideniedan o'quv ma'lumotlarini olish; v) elektron hisoblash texnikasi (kalkulyator, kompyuter)da ishlay olishi; Rivojlantiruvchi ko'nikmalar – ilgari olingan bilimlarni qo'llash, dunyoning yaxlit ko'rinishini o'zlashtirish; Yo'naltiruvchi ko'nikmalar – o'z kuchi va imkoniyatlarini sinogvdan o'tkazishi, shaxs tomonidan ma'lum bir kasbiy guruhni tavsiflovchi qadriyatlar, me'yorlar, standartlar, standartlar tizimini qabul qilish va o'zlashtirish orqali o'zini-o'zi anglashi.

Darsdan tashqari faoliyat kreativlikni u yoki bu fandan bilimlarni chuqurlashtirish va uni hayotda (turmushda, ishlab chiqarishda) qo'llanilishi orqali rivojlantirdi. Ta'kidlab o'tmoqchimizki, to'garak shaklidagi ishlarning samaradorlik ko'rsatkichi to'garak jamoasi tarkibining barqarorligi, jamoaviy yutuqlarning sezilariligi va boshqalar tomonidan buning tan olinishi hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashga oid darsdan tashqari shakldagi mashg'ulotlar individual tarzda tarbiyaviy ishlarni olib borilishiga imkoniyat yaratadi va u asosan alohida o'quvchilarda qobiliyatlari, moyilliklari va iqtidorlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Ta'lim va tarbiyani tashkil etishning individual shaklining samardorlik mezoni bilim, ko'nikma, xulq-atvor, munosabatlar, ya'ni yaxlit holda tarbiyalanuvchi shaxsidagi ijobiy o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar turli yoshdagi yoki sinfdagi o'quvchilar bilan tashkil etilishi ham individual ishlashni talab etadi. Aynan u kreativlikni shakllantirishda aniq samarani, moddiy va virtual ko'rinishda yuqori mahsuldorlikni beradi.

Adabiyotlar:

1. Nasriddinov X.B. Ta'lim oluvchilarning kretivligi pedagogik muammo sifatida / J.Muallim hem uzliksiz bilimlendirio' №4, 2023.- Б.146-152.
2. Башина, Т.Ф. Креативность как основа инновационной педагогической деятельности // Молодой ученый. — 2013. — №4. — Б. 521-525.
3. Любарт Т., Мишуру К. ва б. Психология креативности / пер. с фр. — М.: Когнитив-Центр, 2009. — 215с.